

Binyamin Yusuf huzurida



09:35 / 10.06.2019 2546

20

Aka – ukalar xuddi otalari buyurganidek, turli xil eshiklardan kirib, Yusufning huzuriga keldilar. Yusuf Binyaminni ko'rganida juda xursand bo'lib, uni o'z uyiga tushirdi.

Yusuf Binyaminga: «**Albatta men seni akangman**», dedi. Binyamin tinchlandi.

Yusuf Binyaminni uzoq vaqtdan keyin uchratgan edi. U onasini, otasini, uyini va yoshligini esladi. Yusuf Binyaminning o'z oldida qolishini, uni har kuni ko'rishni va uyi haqida so'rab-surishtirishni xohladi. Ammo bunga qanday yo'l bor, axir ertaga Binyamin Kan'onga qaytib ketadi-ku? Bunga qanday yo'l bor, axir akalari u bilan birga qaytishga Alloh nomi ila qasam ichishgan-ku?

Yusuf Binyaminni qanday qilib sababsiz qamoqqa olishi mumkin? Odamlar: «Hokim bir Kan'onlikni sababsiz qamoqqa oldi, bu zulmdir», deydilar-ku?!

Lekin Yusuf dono va aqlli edi. Yusufning qimmatbaho idishi bo'lib, unda suv ichar edi. O'sha idishni Binyaminning yukiga joyladi, so'ng jarchi: «Sizlar o'g'risiz», deb jar soldi. Akalar ularga qarab: «Nimani yo'qotdingiz», dedilar. Ular: «Podshohning (suv ichadigan) idishini yo'qotdik. Uni keltirgan kishiga bir tuya yuk», dedilar.

Ular: «Allohga qasamki, o'zingiz bilasiz, biz yer yuzida fasod uchun kelgan emasmiz, biz o'g'rilar bo'lgan ham emasmiz», dedilar. «Ular: Agar yolg'onchi bo'lib chiqsangiz, jazosi nima?» dedilar. Ular: «Uning jazosi, kimning yukida topilsa, o'shadir. Bas, uning jazosi o'shadir. Zolimni shunday jazolaymiz», dedilar».

Idish esa Binyaminning buyumlari orasidan chiqdi. Akalar hijolat bo'ldilar, lekin hech qanday hijolatsiz: «Agar (Binyamin) o'g'irlik qilgan bo'lsa, uning akasi (Yusuf) ham bundan ilgari o'g'irlik qilgan edi», deyishdi. Yusuf bu bo'htonni eshitdi, sukut saqlab, g'azablanmadi. Yusuf sahiy va halim edi.

Ular: «Ey Aziz, buning katta yoshli chol otasi bor. Bas, birimizni uning o'rniga ol. Biz seni yaxshilik qiluvchilarda ekanligingni ko'rmoqdamiz», dedilar. U: «Narsamizni huzuridan topgan odamdan boshqani olib qolishimizdan Alloh saqlasin. Aks holda, albatta, zolimlardan bo'lib qolamiz», dedi».

Shunday qilib Binyamin Yusufning oldida qoldi. Ikki aka-uka juda xursand bo'ldilar. Albatta, Yusuf uzoq vaqtdan beri yolg'iz edi. Yaqinlaridan hech kimni ko'rmagan edi. Alloh unga Binyaminni qaytarib berdi. U uni har doim yonida bo'lishi va u bilan suhbatlashish uchun qamoqqa olmagan-ku?

Uka o'z akasining oldida turishi zulm bo'ladimi?

Hech qachon! Hech qachon!